



O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH ISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Teshaboyev Zikrillo
Abdullayevich,**

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
dotsenti,*

e-mail: teshaboyevzikrillo28@gmail.com,

telefon: (998) 94- 555-00-01

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda texnologiya fani o'qituvchilari, maktab amaliyotchi psixologlari, sinf rahbarlari va maktabning ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirokida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarning ta'sirlari haqida fikrlar berilgan. Bundan tashqari o'quvchilarning kasb tanlashlariga ta'sir etuvchi omillar, ota-onalar, sinfdosh o'rtoqlari, yashab turgan muhiti va boshqa holatlarning ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktab o'quvchilari, kasb tanlash, o'quvchi-yoshlarning kasb tanlashlari, bilim, ko'nikma va malakalar.

ANNOTATION

This article provides ideas about the impact of collaborative work, including technology teachers, school psychologists, class teachers, and school spiritual and educational directors, on the career guidance of students in general secondary schools. In addition, information is provided about the factors influencing students' career choices, the influence of parents, classmates, living environment, and other circumstances.

Keywords: general secondary schools, schoolchildren, career choice, career choices of students, knowledge, skills, and qualifications.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены идеи о влиянии совместной работы, в которой участвуют учителя информатики, школьные психологи, классные руководители и школьные духовные и образовательные наставники, на профориентацию учащихся общеобразовательных средних школ. Кроме того, приводится информация о факторах, влияющих на выбор профессии учащимися, а также о влиянии родителей, одноклассников, условий жизни и других обстоятельств.

Ключевые слова: общеобразовательные средние школы, школьники, выбор профессии, выбор профессии учащимися, знания, навыки и квалификация.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va [qonunda](#) ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir. Yosh avlodni hayotga, kundalik faoliyatga tayyorlash g‘oyat muhim vazifadir. Shu boisdan o‘quvchi-yoshlarning kasb tanlashi va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish muammolari maktab ishida katta o‘rin tutadi.

Xalq ta‘limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda va muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarda ta‘kidlanganidek, mamlakatimizda yaratilgan kasbga yo‘naltirish tizimida umumiy o‘rta ta‘lim maktabiga va o‘qituvchiga yetakchi o‘rin ajratilmoqda. Bugungi kunda maktab o‘qituvchisi, jumladan texnologiya fani o‘qituvchisi xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblariga bo‘lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to‘g‘ri tanlashda ham o‘quvchilarga yordam berishi kerak.

Buni texnika vositalarini yangilash sur‘atining yanada tezlashtirilish, buyumlarni standartlash va unifikatsiyalash, radiotexnika, elektronika, aviatsiya, kosmonavtika, avtomatik boshqarish va rostlash tizimlari, hisoblash texnikasi, axborotlar texnologiyasi va b. rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Chunki sanoatda avtomatlashtirishning rivojlanishi avtomat liniyalar va avtomat sexlar, avtomat zavodlar yaratishga olib keldi, axborotlar texnologiyalari rivojlandi.

Kasbga layoqatlilikni tanlash maxsus guruh tomonidan amalga oshiriladi. Unga o‘qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarish sohasidagi muhandis yoki boshqa mutaxassislar, sotsiologlar, shifokorlar kiradi. Yuqoridagi kasb egalari har bir o‘quvchiga kasb haqida ma‘lumot berib, uni egallash uchun nimalarga ahamiyat qaratish lozimligi haqida tushunchalar beradilar va buning sababini asoslab beradilar.

Yosh avlodni hayotga, kundalik faoliyatga tayyorlash g‘oyat muhim vazifadir. Shu boisdan o‘quvchi-yoshlarning kasb tanlashi va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish muammolari maktab ishida katta o‘rin tutadi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, kasbga yo‘naltirish ishi - o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy kismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barkaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga taylik-shaxs yetukligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashkari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy kobilyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan texnika borasida va shu kabi soxalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashkari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga karab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin.


Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash) - moddiy ishlab chiqarish soxasida mehnat bulgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'ldan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag 'ishlashga va bundan ma'naviy konikish olishga intilishni shakllantiradi. Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'grisida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvafaqqiyatlarida suhbatlar tashkil kilish ko'zda tutiladi. Yana yosh guruhdagi o'quvchilar uchun maktab oshxonasiga, o'quv ustaxonalariga, mehnat kabinetiga, kutubxonaga, maktablararo olishga intilishni shakllantiradi.

Bu borada ishlar oldindan tuzib o'quv - ishlab chiqarish kambinatiga, qishloq hunar - texnika bilim yurtiga, korxonalariga, aloqa bo'limiga, jamoa xo'jaligi garajiga yoki ta'mirlash ustaxonasiga, jamoa xo'jaligi xirmoniga va shu kabi joylarga ekskursiya tashkil kilish mumkin. Bu ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xomashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli uqtirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash) - biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichda kasbga yo'naltirish soxasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir. Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashkari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi.


Uchinchi bosqich (asosan VIII- IX) sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi) - bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarning turli klublar va qiziqishlar (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish ishi kutilgan natijalarni berishi uchun u uzluksiz jarayon bo'lishi va o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan iborat bo'lishi lozim:



2016-yilga qadar kasbga yo'naltirish ishlari zamon talablari darajasida tashkil etilmadi. Natijada maktabni tamomlagan ayrim yoshlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'lib, o'quvchilarning ko'pchiligi u yoki bu kasbning nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilolmas edi.

Kasb-hunar maktablarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob o'tkazilganda ularning kasb tanlash ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:



Albatta, bu ma'lumotlar turli davr va mintaqalarda obyektiv holda turlicha bo'lishi mumkin, ammo shu narsa ayonki, o'quvchilarning aksariyat qismi kasblarni atroflicha o'ylab ko'rmay taxminan tanlagandilar. "Siz nima uchun ushbu kasbni tanladingiz?", - degan savolga 35% o'quvchi: "Buni o'ylab ko'rganim yo'q" qabilida javob qaytargan.

Kasbni tushunmay turib, tasodifiy tanlash shunda ko'rinadiki, kasb-hunar maktabida o'qishning dastlabki kunlarida o'quvchi kasbga qandaydir ishtiyoq bilan qaraydi. Keyinchalik bu ishtiyoq asta-sekin so'nib boradi. Kasb-hunar maktablarida dastlabki yil o'qiyotgan o'quvchi-yoshlardan so'ralganda ularning 30% i, ikkinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa ularning faqat 20% i tanlagan kasbidan xursand ekanligini bildirgan.

Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar shug'ullanmoqda. Biroq bu ishda maktab asosiy vazifani bajarishi va muhim rol o'ynashi kerak.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga va uzluksiz ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan maktab o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga va muayyan kasbga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi ularning har biriga individual yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqatliligi, qo'yilgan maqsaddan ko'zlangan natijaga erishishda shaxsiy ijobiy fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchining nima uchun shu kasbni tanlaganligi, kasbning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, o'quvchining qiziqishi va havasi, uning kasb-hunar o'rganishga tayyorligi, oilaviy urf-odatlar va an'analar, ota-onalar, o'qituvchilar, tengdoshlarining maslahatlarini hisobga olish kerak.

O'quvchilarni uzoq vaqt o'rganish natijalaridan kelib chiqib sinf rahbarlari har bir o'quvchiga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlashni tavsiya etish uchun asos bo'ladi. Kasbga layoqatlilikni tanlash maxsus guruh tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarish sohasidagi muhandis yoki boshqa mutaxassislar, sotsiologlar, shifokorlar

kiradi. Yuqoridagi kasb egalari har bir o'quvchiga kasb haqida ma'lumot berib, uni egallash uchun nimalarga ahamiyat qaratish lozimligi haqida tushunchalar beradilar va buning sababini asoslab beradilar. Quyidagi jadvalda ayrim toifadagi kishilarga qanday kasblarda ishlash qiyinchilik tug'dirishi bo'yicha fikrlar keltirilgan:

T/r	Shaxs xususiyati	Qanday kasblarda ishlash qiyinchilik tug'diradi
1	Xolerik temperamentli bola	Yaxshi andaza yasovchi, usta chilangar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulushigacha aniqlikka erisha borib, uzoq vaqt o'lchov asboblari ishlash qiyinlik qiladi
2	Melanxolik temperamentli bola	Tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshqarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi
3	Ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaydigan (daltonik) bola	Har qanday transport turini boshqarish qiyinchilik tug'diradi, metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas
4	Vestibulyar apparati buzilgan o'quvchilar	Uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo'la olmaydilar

Bundan tashqari kundalik hayotimizda turli kasb egalari turmush tarzi, hayotdagi mavqeyi, ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli aniq namoyon bo'lib turadi. Har bir ota-ona o'zining farzandining hayotda bekami ko'st yashashini, barcha qulayliklarga ega bo'lgan sharoitda yashashini istaydi va o'z farzandining shunday hayotga olib keladigan kasblarning egasi bo'lishini xohlaydi. Ayrim ota-onalar farzandida shu kasbni egallashi uchun xohish-istak yoki qobiliyat bormi yoki yo'qmi hatto hisoblashmaydilar ham. Yoki o'quvchilarning ko'r-ko'rona kasblarni egallashlariga tengdoshlarining ta'siri ham sabab bo'lishi mumkin.

Aslida umumiy o'rta ta'lim maktablarida mutaxassislarning bergan maslahatlari juda ko'p holatlarda manfaatliroq bo'ladi, chunki ular birinchi navbatda bolaning qiziqishlarini, imkoniyati va qobiliyatini, shu kasbga o'sha hududda qanday ehtiyojlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarga suyangan holda taklif va tavsiyalar beradilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 1-oktabr, 270-son.
3. Abduraxmonov F.P., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi. 2018.
4. Axmedov M.M., Teshaboyev Z.A. Kasb-hunarga yo'naltirish. Monografiya. 2023.
5. Teshaboev Z.A. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish. O'quv qo'llanma. 2022.